# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2025 yil 6-mart, № 46 (8941) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## O‘ZARO ISHONCH VA SHERIKLIK TAMOYILLARI ASOSIDAGI HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Nurlan Yermekbayevni qabul qildi.**



Ushbu nufuzli tashkilot doirasidagi ko‘p tomonlama sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan umumiy xavf va xatarlarga qarshi kurashishda amaliy sa’y-harakatlarni kengaytirish, yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va sheriklik tamoyillari asosida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish muhim ekani ta’kidlandi.

Samarqand sammitida boshlangan SHHT faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonini davom ettirish, jumladan, tashkilotning barcha tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

“Yangi iqtisodiy muloqot”ni rivojlantirish konsepsiyasi va mamlakatimizning boshqa qator tashabbuslarini amalga oshirish zarurligi qayd etildi. Bular savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitim, elektron tijorat dasturi, investitsiyalarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari, logistikada raqamlashtirish rejasi, “SHHT kelajak texnologiyalari” dasturi, Oziq-ovqat xavfsizligi atlasi va boshqalarni qabul qilishdir.

Shuningdek, Xitoyda bo‘lajak SHHT sammitiga tayyorgarlik ko‘rish masalalari muhokama qilindi.

## KO‘P QIRRALI MANFAATLI ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**



Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvilining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-logistika, turizm va madaniyat sohalaridagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Parlamentlar va hukumatlar darajasidagi aloqalar faollashgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash 50 foizga oshdi, qo‘shma korxonalar soni va yuk aylanmasi hajmi ko‘paydi. Poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviareyslar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda gruziyalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan raqamli bank faoliyat yuritmoqda. Gumanitar yo‘nalishda o‘tgan yili Tbilisi shahrida O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Suhbat davomida shu kunlarda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilish yakunlari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlash sur’atini saqlab qolish, eksport va import mutanosibligini ta’minlash, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish, transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, ikki mamlakat hududlarini iqtisodiy hamkorlikka faol jalb qilish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashgan choralar ko‘rish muhimligi qayd etildi.

Raqamlashtirish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi sheriklik va almashinuvlarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida kelgusida O‘zbekiston va Gruziya hukumatlari darajasida yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.*

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH — UMUMMILLIY VAZIFA, HAR BIR VATANPARVAR YURTDOSHIMIZNING VIJDON ISHI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida ishtirok etdi. Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi.**

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi.

Shu bois so‘nggi yillarda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar qabul qilinib, yangi tizim yaratildi. Parlament palatalarida mas’ul qo‘mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash va agentlik tashkil qilindi.

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni va ta’siri ortib bormoqda.

Avvalo, korrupsiyaning omillariga qarshi kurashilmoqda. Masalan, yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechilib, auksion tizimiga o‘tkazilgani natijasida bu tizim xalqchil bo‘ldi. “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin bu sohada ham ijobiy o‘zgarishlar sezildi.

Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m byudjet mablag‘i tejaldi.

Bugunga kelib, barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn beryapti. Natijada oldin bu ish bilan shug‘ullangan minglab bankirlar endi mahallaga tushib, odamlarga loyiha, kredit taklif qilib, mijozini ko‘paytirish bilan ishlayapti.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu sohada murojaatlar soni 2,5 karraga kamaydi.

Oliy ta’lim tizimi ham raqamlashtirildi. Avval test topshirib, to‘plagan baliga qarab, keyin oliygohni tanlash joriy qilindi. 35 turdagi hujjatlar inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.

Yo‘l harakati xavfsizligi inspektori bodi kamerada xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, qog‘ozdagi bayonnoma yo‘q bo‘lgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi.

Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi.

Eng muhimi, bular orqali aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarga ishonchi mustahkamlandi. So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning isboti.

Prezident korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy jarayon ekanini aytib, bu boradagi dolzarb masalalarni va kelgusi vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi.

Huquq-tartibot idoralari, asosan, korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo‘qotadigan preventiv choralar e’tiborsiz qolayotgani qayd etildi.

Shu bois Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ish uslubi o‘zgartirilishi belgilandi. Buning uchun, tajriba tariqasida 5 ta — Sog‘liqni saqlash, Qurilish, Suv xo‘jaligi vazirliklari, “O‘zbekneftgaz” va “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyatlarining komplayens nazorati agentlikka o‘tkaziladi.

Shuningdek, tumanlar darajasiga tushib, maishiy va tizimli korrupsiya omillarini chuqur o‘rganadi. Tahlillar asosida aniq choralarni ishlab chiqib, milliy kengashga taqdim etadi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir etilyapti. Shu bois endi Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to‘liq yangilanadi. Ularga viloyat xalq deputatlari Kengashi raislari bosh bo‘ladi.

Hududiy kengashlar korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularga barham berish uchun qonunchilikni o‘zgartirish, jazo muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha milliy kengashga taklif kiritadi.

Bundan sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu tizim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga ko‘maklashdi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda hududlar salohiyati oshdi.

Shu bois endi prokuror, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorlar faoliyati bilan shug‘ullanmasligi belgilandi. Jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar qo‘yildi.

Davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuziladi. Ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlari ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratiladi. Bunda, davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.

Byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar ham kuchaytirilishi belgilandi. Davlat idoralarining xaridlarida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan transport va mebelga ustuvorlik berish zarurligi qayd etildi. Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash talabi qo‘yildi.

Korrupsiyaning oldini olish — davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlat xizmatchilari daromadini deklaratsiyalashga oid qonun zarurati qayd etilib, uning loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi belgilandi.

Fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim maskanlarida halollik g‘oyalarini singdirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishi ekanini ta’kidladi.

— Hammamiz yagona kuch bo‘lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar — umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda parlament va hukumat a’zolari, jamoatchilik vakillari bilan muloqot bo‘ldi.

Umuman, ilk marotaba bunday tarzda yig‘ilish o‘tkazilishi korrupsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari aniq maqsadga yo‘naltirilgan 55 ta tashabbusni ilgari surdi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta Farmon va qarorlar ishlab chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari kuchayadi. Deklaratsiyalash, noqonuniy boylik orttirishga oid yangi tartiblar kiritilishi natijasida korrupsiya omillari cheklanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, tashkilotlardagi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati kuchaytiriladi.

Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazirlik, idoralar rahbarlari mas’uliyati oshiriladi. Davlat xizmatlari sifatini aholi baholaydigan tizim yaratiladi, eng yomon ko‘rsatkichga ega soha rahbarlari bo‘yicha chora ko‘riladi.

Nazorat inspeksiyalari mustaqilligi oshiriladi. Yirik investitsiya loyihalarida, auksionlarda korrupsiyaning oldini oluvchi mexanizmlar joriy etiladi.

Davlat xaridlari tartibga solinishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar cheklanishi hisobiga byudjet mablag‘lari tejalishi ta’minlanadi. Davlat pulini maqsadsiz sarflash holatlariga barham beriladi.

Sektorlardan ozod bo‘lgan kuch va vositalar jinoyatchilikka qarshi kurashishga safarbar etilib, jamiyatda barqarorlik muhiti va odamlarning roziligi ortadi. Noqonuniy tekshiruvlar ustidan prokuror nazorati kuchaytirilishi orqali joylarda biznes va investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Erishilgan natijalar xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rnini yaxshilaydi. 2027-yilda UNCAC konferensiyasi mezbonligiga O‘zbekiston nomzodini ma’qullash uchun zamin hozirlaydi.

Eng muhim, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi yuksaltirilib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldorlik shakllanadi.

**O‘zA.**

# ISLOHOTLAR YO‘LIDAGI ENG KATTA TO‘SIQ

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.*

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta’kidladi. “*Islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov — bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to‘liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko‘rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat. Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi*”, dedi Prezident.

Taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan mazkur illat haqida gap borar ekan, mamlakatimizda korrupsiya rivojlangan sohalar borasida ham to‘xtalindi. Xususan, shu paytga qadar qurilish sohasi eng korrupsiyalashgan tarmoqlardan biri bo‘lgan bo‘lsa, “Shaffof qurilish” dasturi joriy qilinganidan keyin bu yo‘nalishda ham ijobiy o‘zgarishlar sezilmoqda. Ilgari investitsiya dasturiga kirgan obyektlarni quradigan pudratchilar soni mingtaga ham yetmagan bo‘lsa, o‘tgan yilda 13,5 mingta obyekt qurilishida 4 mingdan ziyod pudratchilar ishtirok etgani va soha raqamlashgani hisobiga o‘tgan 4-yilda 3,6 trln. so‘m byudjet mablag‘i tejalgani ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender jarayonlari raqamlashtirilib, sog‘lom raqobat tufayli o‘tgan yili 14 trln. so‘m byudjet mablag‘i tejalgan.

*“Odamlar kredit olish uchun ko‘plab to‘siq va Qovlarni yengib o‘tishi kerak edi. Bugunga kelib barcha banklar 100 million so‘mgacha maishiy kreditlarni inson omilisiz 5 daqiqa ichida onlayn bermoqda.*

*Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilib, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar berish tartibi bekor qilindi.*

*Bu amalga oshirilgan ishlar natijasida 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar soni qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi. Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi.*

*So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning yaqqol isboti emasmi?”*, deya ta’kidladi mamlakatimiz rahbari.

Prezident topshirig‘i bilan investitsiya dasturlari ustidan nazorat kuchaytirilganidan keyin o‘tgan yilning o‘zida 3 trln. so‘m iqtisod bo‘ldi. Birgina sog‘liqni saqlash tizimida Situatsion markaz ishga tushirilgani hisobiga 2024-yilda 1,2 trln. so‘mlik maqsadsiz xarajatlarning oldi olindi. Manfaatlar to‘qnashuvi, qimmat narxda tovar sotib olish yoki xizmat ko‘rsatish, asosan, davlat xaridlarida kuzatilayotgani ham ko‘rsatib o‘tildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Hisob palatasiga parlamentning byudjetga mas’ul qo‘mitalari bilan birgalikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlarni 2 karra qisqartirish, yil yakunigacha sun’iy intellekt yordamida davlat xaridlarida qonunga zid holatlarni aniqlash va oldini olish bo‘yicha elektron tizimni ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Bu borada Ekspert komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ushbu komissiya ilg‘or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o‘rtacha bozor narxlari ko‘rinib turadigan elektron platforma yaratib, undagi ma’lumot yangilanib turadigan tizim qilishi ta’kidlandi. Bunda davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o‘rtacha bozor narxidan ko‘pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.

Prezident byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga olinayotgan tovarlarni ham tartibga solish vaqti kelganini ta’kidladi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘ hisobidan asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablar kuchaytirilishi belgilandi.

Yana bir masala — davlat xizmatchilari daromadini deklaratsiyalashga oid qonunni qabul qilish vaqti-soati kelgani aytib o‘tildi va bu borada jamoatchilik fikri juda muhimligi qayd etildi.

Noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlik masalasini ham o‘ylab ko‘rish zarurligi ta’kidlanib, qonunchilikka noqonuniy boylik orttirish haqida modda kiritish taklif etildi. Ya’ni davlat xizmatchisi deklaratsiya qilgan daromadiga mos kelmaydigan mol-mulkini qayerdan olganini isbotlashi kerak bo‘ladi. Mutasaddilarga tez fursatda ushbu qonun loyihasini 1-aprelgacha jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish vazifasi topshirilgani e’tiborga molikdir.

Korrupsiya — ijtimoiy barqarorlik kushandasi. Bu illat mamlakat rivojiga xavf soladi, uning ayanchli oqibatlaridan jamiyat aziyat chekadi. Shunday ekan, har bir fuqaroda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, shu bilan birga, har qanday shakldagi va darajadagi korrupsiyaviy faoliyat bo‘yicha yagona tushunchani hosil qilish, shunday faoliyatga aralashib qolish bilan bog‘liq xavf-xatarlarning oldini olish asosiy maqsadimiz bo‘lib qolaveradi.

**Erkin GADOYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi.**

# OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASHGA YANGICHA YONDASHUV

*Kecha Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning sarhisobi, erishilgan natijalar va kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar batafsil muhokama qilindi.*

Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashishda uning kelib chiqish sabablarini chuqur o‘rganish, oldini olish va bu boradagi profilaktika ishlarini tizimli bajarishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarga to‘xtalib o‘tdi.

Bugungi islohotlarni amalga oshirishda eng katta g‘ov, bu — korrupsiya illati ekani, u xalqning davlatga, Konstitutsiyaga va qonunlarga bo‘lgan ishonchini so‘ndirishi ta’kidlanib, parlament palatalari tomonidan bu borada qilinayotgan ishlarga ham asosli ravishda tanqidiy baho berildi hamda tegishli qo‘mitalar faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qator aniq vazifalar belgilab berildi.

Shundan kelib chiqib, qo‘mitamiz o‘z faoliyatida byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashda korrupsiyaning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda qonun ijodkorligi faoliyatiga tanqidiy qarab, bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshiradi.

Eng avvalo, soliq, byudjet va pul-kredit siyosatini hayotga tatbiq etish, bank va moliya tizimining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan qonunlarni ko‘rib chiqishda, albatta, korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Davlat byudjeti mablag‘lari ishlatilishi bilan bog‘liq barcha jarayonning ochiqlik va shaffofligini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishda deputatlarning qonunchilik tashabbusi huquqidan keng foydalangan holda tashabbusli qonun loyihalari ustida ish olib borishini keskin kuchaytirishimiz zarur.

Byudjet, soliq, bank va boshqa moliyaviy xizmatlar sohasida korrupsiyaga qarshi qonunchilikni kuchaytirish uchun tizimli yondashuv talab qilinadi. Buning uchun Prezidentimiz ta’kidlaganidek, qonunlarda shaffoflikni oshirish, inson omilini kamaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va jazo muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan normalar o‘z aksini topishi lozim.

Korrupsiyaviy holatlarni kamaytirish uchun byudjet, soliq va bank sohasidagi qonunlarda normalarning mukammalligi, aniq tartibga solingani, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga amal qilingani pastga tushib, mahallalarga borib o‘rganiladi. Bunda byudjet mablag‘larining taqsimlanishi hamda sarflanishi haqidagi ma’lumotlar jamoatchilik bilan muhokama qilinadi va aniqlangan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, davlatimiz rahbari soliq, moliya va bank tizimida raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratishga doir aniq vazifalar qo‘ydi. Shundan kelib chiqib, ushbu sohalarda korrupsiya xavfini kamaytirish maqsadida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, xususan, elektron soliq to‘lovlari, onlayn audit tizimlari, avtomatlashtirilgan moliyaviy hisobotlar kabi zamonaviy vositalarni keng joriy qilishning huquqiy asoslarini yaratishga jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak.

Shu nuqtayi nazardan, ish rejamizda qo‘mita tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tadbirlarini ham chuqur qayta ko‘rib chiqamiz.

Eng avvalo, qo‘mita mas’ulligida qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi, “Raqobat to‘g‘risida”gi, “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi, “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi va boshqa bir qancha qonunlarda korrupsiyaning oldini olish mexanizmlari bugun amaliyotda qanday ishlayotgani va natija berayotganiga huquqiy baho berishimiz kerak.

Shuningdek, banklar faoliyatida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, ayniqsa, moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda inson omilini cheklash hamda bu borada raqamlashtirishni qo‘llashning huquqiy mexanizmlari amaliyotga qay darajada joriy qilingani bo‘yicha qo‘mita eshituvlari tashkil etiladi.

Qo‘mitaning nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirishda Hisob palatasi va boshqa davlat moliyaviy nazorat organlari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Qolaversa, Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga amalga oshirilgan loyihalar yakuni bo‘yicha eshituvlar hamda birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan foydalanishi bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari bajarilishi yuzasidan vazirliklar va idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitishni ham korrupsiya holatlari hamda omillari nuqtayi nazaridan yangicha tashkil qilishimiz talab etiladi. Bundan tashqari, Davlat byudjetidan har yili ajratilgan subsidiyalardan maqsadli va samarali foydalanilishi holatini joyiga chiqib o‘rganish ishlari uyushtiriladi.

Prezidentimiz oldimizga qo‘ygan yana bir aniq vazifalardan biri, bu — davlat xaridlari tizimida tanlovsiz amalga oshirilayotgan xaridlarni tanqidiy ruhda ko‘rib chiqish hamda yil yakunigacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar miqdorini ikki karraga qisqartirish. Bu borada Senatning mas’ul qo‘mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan hamjihatlikda tizimli ishni yo‘lga qo‘yamiz.

**Sharofiddin NAZAROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi.**

# PIROVARD MAQSAD – SOG‘LOM MUHIT YARATISH

*Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari so‘zining avvalida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta’kidladi.*

Sir emaski, yaqin-yaqingacha odamlar bolasini maktab yoki bog‘chaga joylashtirishda sarson bo‘lib, ishini “boshqa yo‘llar” bilan hal qilishiga to‘g‘ri kelar edi. O‘tgan davrda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazilishi ushbu sohada murojaatlar sonining 2,5 karraga kamayishiga olib keldi. Yoki bo‘lmasa, bundan 7-8-yil avval oliygohlarga o‘qishga kirishda tanish-bilishchilik avj olgan edi. Bugun soha raqamlashdi, imtihonlar onlayn translyatsiya bo‘lyapti. Avval test topshirib, to‘plangan ball asosida oliygohni tanlash tizimi joriy qilindi.

Yoki aholining yo‘llarda xavfsizligini ta’minlash borasida ham talay ishlar amalga oshirildi. Yo‘l harakati xavfsizligi inspektorlari bodi kamera bilan xizmat o‘tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, “qo‘l radari” va qog‘oz bayonnoma tuzish bekor qilingani uchun mazkur sohada korrupsiya kamaygani e’tirof etildi.

Shu bilan birga, huquq-tartibot idoralari, asosan, korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo‘qotadigan preventiv choralarni e’tiborsiz qoldirayotgani qayd etildi.

Xususan, sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu tizim yillar davomida yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilib, vaziyatni o‘nglash uchun barcha kuchlarni safarbar etishga ko‘maklashdi. So‘nggi yillarda hududlar salohiyati bir necha karraga oshdi. Lekin keyingi paytda prokuratura, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorni bahona qilib, o‘z sohasidagi ishlarni susaytirib yuborgani tanqid ostiga olindi.

Prezidentimiz Ichki ishlar vaziri zimmasiga mahallalardagi har bir profilaktika maskanlarini kuzatuv kamerasi va har bir inspektorni bodi kamera bilan ta’minlab, huquqbuzarliklarni ro‘yxatga olish bo‘yicha yangi platformani ishga tushirish hamda jinoyatlarni hisobga olish tizimini to‘liq raqamlashtirish vazifasini qo‘ydi.

Bundan tashqari, Senat kamida bitta hududda jinoyatchilikni keskin qisqartirish, Qonunchilik palatasi esa kamida bitta sohada korrupsiyaga barham berish bo‘yicha takliflar berib borishi bu boradagi ishlar natijadorligini yanada oshirishiga ishonch bildirildi.

Senatga viloyat va tuman ichki ishlar boshqarmalarida jinoyatchilikning oldini olishda yuzaga kelayotgan muammolarni o‘rganish, tuman bo‘linmalarida muhokama qilib borish vazifasi yuklatildi.

Xulosa o‘rnida aytsak, korrupsiya — eng avvalo, inson huquqlarini ta’minlashga monelik qilib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda, korrupsiya fuqarolarning davlat boshqaruvi idoralariga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishiga olib kelib, uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga zamin yaratadi va insonlarning xavfsizligiga tahdid soladi. Shunday ekan, bugun maqsadimiz aniq, korrupsiya muammosining tub mohiyatini tushunib yetish va bu illatga murosasiz kurashish hamda uning oldini olishdan iborat.

**Qutbiddin BURHONOV,**
**Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.**

Fakt va raqamlar

# MUAMMONING YECHIMI — SA’Y-HARAKATLARNI BIRLASHTIRISH

**So‘nggi yillarda yurtimizda korrupsiya omillariga qarshi samarali kurash olib borilmoqda.**

## Natijada:

— yerni hokim qarori bilan ajratishdan to‘liq voz kechilib, auksion tizimiga o‘tkazildi;
— davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilindi, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili **14 trillion** so‘m byudjet mablag‘i tejaldi;
— maktabgacha va maktab ta’limi tizimida **10 dan** ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi.

Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, **120 turdagi** hujjatlarni talab etish, **160 dan** ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi.

Elektron davlat xizmatlari soni **15 karra** ortib, **721 taga** yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa **11 milliondan** oshdi.

# PARLAMENT TASHABBUSKOR BO‘LADI

*Davlatimiz rahbari raisligida korrupsiyaga qarshi kurashishga bag‘ishlab o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda korrupsiyaga qarshi qat’iy siyosatning asosiy maqsadlari va kelgusi vazifalari aniq belgilab berildi.*

Avvalo qayd etish kerakki, so‘nggi yillarda Prezidentimiz qat’iy siyosiy irodasi bilan O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi.

Ilgari biz korrupsiya illatiga qarshi ko‘proq operativ-qidiruv usullar orqali kurash olib borishni tushunar edik. Lekin ijtimoiy xavfli qilmish sodir etib bo‘lingandan so‘ng uning aybdorini qidirib jazolash bilan ish bitmasligini zamonning o‘zi bizga ko‘rsatdi.

Shuning uchun bugun nafaqat operativ-qidiruv, balki “preventiv” usullar, ya’ni ko‘proq korrupsiyaning oldini olishga e’tiborni kuchaytirdik. To‘g‘ri-da, bunday illat vujudga kelmasidan oldin uning oldini olsakkina, samara bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari prezidentlik lavozimiga kirishganidan so‘ng birinchi imzolagan qonunlardan biri ham aynan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun bo‘ldi.

Bugun mamlakatimizda “korrupsiya” so‘zi ishlatilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Albatta, ularning barchasida ushbu so‘z korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida ishlatilgan.

O‘zbekiston tarixida birinchi marotaba “korrupsiyaga qarshi kurashish” so‘zlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritildi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlamentning roli oshirildi. Ayniqsa, davlat rahbarining 2018-yil 7-dekabrdagi taklifiga asosan, parlamentning har ikkala palatasida korrupsiyaga qarshi mas’ul qo‘mitalar tuzildi.

Kengaytirilgan yig‘ilishda mana shu qo‘mitalar faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan qator tavsiyalar berildi. Xususan, parlamentning mas’ul qo‘mitalari har bir mahallaga tushib jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlashi, mansabdor shaxslar oldiga korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha masala qo‘yishi, sohaga oid takliflar ishlab chiqishi, qonunlarni takomillashtirish choralarini ko‘rishi ana shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz rahbarining mazkur tavsiyasiga muvofiq, Oliy Majlisning tegishli qo‘mitalari quyiga tushib bevosita jamoatchilik vakillari, tadbirkorlar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Bunday amaliyot nafaqat parlament nazoratining samarasini, balki qonun ijodkorligi sifatini ham oshiradi. Zero, Prezidentimiz aytganidek, shundagina qonun pastdan, oddiy odamlardan chiqayotgan takliflar asosida yoziladi va xalqchil bo‘ladi.

Shu bilan birga, parlament qo‘mitalari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy kengashlar bilan ham hamkorlikni kuchaytiradi, ularni ta’sirchan institutga aylantirish borasida choralar ko‘radi.

Albatta, milliy parlamentimiz kuchli qonunlarni qabul qilsagina korrupsiya illatiga qarshi kurashish samara beradi. Bu borada ham Prezidentimiz o‘z tavsiyalarini berib o‘tdi. Ayniqsa, parlament tomonidan qabul qilingan korrupsion jinoyatlarga oid qonun haqli ravishda tanqidga uchradi. Chunonchi, faqat jazoni kuchaytirish bilan korrupsiyani yo‘qotib bo‘lmaydi, shu bois qonunda boshqa usullar, shu jumladan, korrupsiyaning oldini olish, odamlarni bunga toqatsiz ruhda tarbiyalash, jinoyatni fosh etishga yordamlashganlarni rag‘batlantirish tizimi ham nazarda tutilishi lozim.

Shunga muvofiq, mazkur qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qayta ishlab chiqiladigan bo‘ldi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining noqonuniy boylik orttirish holati yuzasidan bergan taklifi parlamentning mas’ul qo‘mitalari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Albatta, masala juda nozikligi bois uni joriy etishdan oldin har tomonlama puxta o‘rganiladi, xorij tajribasi orqali xalqimiz bilan bamaslahat loyiha ishlab chiqiladi.

Yana bir muhim masala. Prezidentimiz bundan buyon vazir va hokimlar lavozimiga qo‘yilishidan oldin korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq rejasini parlament va mahalliy Kengashlar oldida himoya qiladigan tizim joriy etishni taklif qildi.

Bugun quyi palataning mas’ul qo‘mitasi tomonidan vazir va hokim lavozimiga nomzodlarning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha rejasini tegishincha parlament va mahalliy Kengashlar oldida himoya qilishini nazarda tutuvchi qo‘shimchalarni “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi hamda “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunlarga kiritish yuzasidan qonun loyihasi tayyorlanmoqda.

Umuman olganda, kengaytirilgan yig‘ilishda berilgan tavsiya va topshiriqlar parlamentning rolini oshirishga qaratilgan bo‘lib, uning zimmasidagi talabni bir necha karraga oshiradi. Deputatlik korpusi bunday mas’uliyatni chuqur his etayotir. Parlamentning mas’ul qo‘mitalari korrupsiya illatiga qarshi kurashishda faol bo‘lishadi va bu masala ularning asosiy strategik faoliyat yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

**Jahongir SHIRINOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi.**

# YOSHLAR ZIMMASIDAGI KATTA MAS’ULIYAT

*Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning tizimli asoslari yaratildi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, parlament palatalarida maxsus qo‘mitalar faoliyat yurita boshladi. Eng muhimi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ham ushbu jarayonda yetakchi rol o‘ynayapti. Ilgari korrupsiya mavzusi ochiq aytilmagan bo‘lsa, bugun u jamoatchilikning faol ishtirokida muhokama qilinmoqda.*

Buning yaqqol ifodasi sifatida O‘zbekistonning xalqaro ochiqlik reytinglaridagi o‘rnining 138 pog‘onaga yaxshilanganini ko‘rsatish mumkin. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda xalq hamda hukumatning hamkorligi muhim natija berayotganidan dalolatdir.

Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham davlatimiz rahbari tomonidan qator taklif hamda tashabbuslar ilgari surildi.

Prezidentimiz o‘z nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi.

Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashda parlamentning roliga alohida urg‘u berilib, Senat kamida bitta hududda jinoyatchilikni keskin kamaytirish, Qonunchilik palatasi esa kamida bitta sohada korrupsiyani bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib borishi kerakligi belgilandi. Shuningdek, bundan buyon vazir va hokimlar lavozimga tayinlanishidan oldin korrupsiyaga qarshi aniq reja ishlab chiqib, uni parlament va mahalliy Kengashlar oldida himoya qilishi shart bo‘lishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan takliflar yoshlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Xususan, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kayfiyatni shakllantirish, yoshlar orasida huquqiy ong va madaniyatni oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlashga hissa qo‘shish Yoshlar parlamenti oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois Yoshlar parlamenti a’zolari ham mazkur jarayonda faol ishtirok etishi, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish uchun yoshlarning ovozini yetkazishi zarur.

**Avazbek ARABBOYEV,**
**Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zosi.**

**Har yili ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan 2 ming nafar xotin-qiz davlat granti asosida oliygohlarga o‘qishga qabul qilinmoqda.**

# QONUN IJODKORLIGI DASTURI MUHOKAMASI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig‘ilishida 2025 — 2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi.*

## Kengash yig‘ilishi



Kengash a’zolariga Oliy Majlis palatalari bilan birgalikda 2025-yil va undan keyingi yillarda ishlab chiqiladigan yangi qonun loyihalari bo‘yicha tayyorlangan takliflar yuzasidan ma’lumot berildi.

Ta’kidlanganidek, 2025-yilda 10 dan ziyod yaxlit qonun loyihalarini ishlab chiqish (qabul qilish) rejalashtirilgan. “Atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida”gi, “Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida”gi, “Uy-joy va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi, “Pulli avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi, “Onlayn platformalar to‘g‘risida”gi kabi qonun loyihalari ana shular jumlasidandir.

Kengash yig‘ilishida mazkur qonun loyihalarini qabul qilishning ijtimoiy zarurati hamda bu jarayonda 20 ga yaqin xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi o‘rganilgani qayd etildi. Xususan, “Shaharsozlik renovatsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish bugun dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, respublikada 42 ming (1,4 mln. xonadon)dan ortiq ko‘p qavatli uy-joy fondi mavjud. Ularning energiya samaradorligini oshirish, seysmik mustahkamligini ta’minlash va aholi uchun barcha qulaylikni yaratish zarurati tug‘ilmoqda. Renovatsiya hisobiga esa 20 ming gektar yer maydoni tejaladi, 4,5 mln. aholini uy-joy bilan ta’minlash, yiliga o‘rtacha 702 MVt soat elektr energiyasi va 87,8 mln. kub metr tabiiy gazni tejash imkoniyati vujudga keladi.

Shu bois mazkur hujjat renovatsiya loyihasi asosida hududni me’moriy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali holatga keltirish, hudud aholisining ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan holatlarni bartaraf etish kabi masalalarning huquqiy asoslarini nazarda tutadi.

“Uy-joy va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi qonun loyihasida uy-joy qurilishiga jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini jalb etishning zamonaviy mexanizmlariga oid tartib-taomillar nazarda tutiladi. Ayonki, ulushli uy-joy qurilishi ehtiyojni to‘liq qoplash uchun fuqarolar mablag‘larini jalb etib, ko‘proq uy-joy qurish imkonini beradi. Biroq ushbu jarayonda fuqarolar mablag‘larini himoya qilishning qonuniy asoslarini yaratish talab etiladi. Taklif qilinayotgan qonun loyihasi ushbu maqsadga qaratilgan.

“Pulli avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bilan esa pullik avtomobil yo‘llari tizimining huquqiy asoslari yaratiladi. Loyihada tirbandlikni kamaytiradigan, o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshiradigan muqobil avtomobil yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi. Ahamiyatli jihati, mazkur hujjat yangi ish o‘rinlarini yaratish, sohaga investitsiyalar jalb qilish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, avtotransport vositalari harakatlanish vaqtini qisqartirishga qaratilgan.

Yana bir hujjat — “Onlayn platformalar to‘g‘risida”gi qonun loyihasining muhimligi shundaki, unda onlayn platformalar faoliyatini huquqiy tartibga solish, internetda noqonuniy kontent tarqatishga qarshi kurashish imkoniyatini yaratish va “yashirin iqtisodiyot” rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik masalalari nazarda tutiladi.

Shuningdek, yig‘ilishda 2026 — 2029-yillarda 20 ga yaqin, jumladan, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy sohani yanada qo‘llab-quvvatlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat boshqaruvi va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan yaxlit qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish rejalashtirilayotganiga ham to‘xtalib o‘tildi. “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risida”gi, “Startaplar to‘g‘risida”gi, “Davlat xizmatlari to‘g‘risida”gi, “Majburiy tibbiy sug‘urta to‘g‘risida”gi, “Sun’iy intellekt to‘g‘risida”gi, “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi kabi qonun loyihalari shular jumlasidandir.

Qonunchilikni kodifikatsiyalash bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilishi taklif etilmoqda. Xususan, 5 ta — Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarni yangi tahrirda ishlab chiqish bo‘yicha ishlar yakuniga yetkaziladi. Axborot, ijtimoiy himoya, ta’lim, transport, korporativ boshqaruv, davlat xizmatlari kabi sohalarda kodifikatsiyalash va tizimlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Kengash yig‘ilishida 2025 — 2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturida nazarda tutilgan qonun loyihalarini sifatli ishlab chiqish va Qonunchilik palatasiga kiritilishini ta’minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishi belgilab olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekiston — Vyetnam:

# Qo‘shma loyihalar qo‘llab-quvvatlandi

*Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Vyetnam Sotsialistik Respublikasi tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Le Txi Txu Xang boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.*

## Oliy Majlis Senatida

Unda O‘zbekiston va Vyetnam o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Vyetnam O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim va ishonchli hamkorlaridan biri ekani, ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya hamda madaniy-gumanitar sohalarda katta salohiyatga ega ekani qayd etildi.

Muloqot davomida tomonlar oliy va yuqori darajadagi tashriflarni tashkil qilish bo‘yicha fikr almashishdi. Xususan, ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy muloqotni faollashtirish, parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash va o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda parlament diplomatiyasining roli oshib borayotganini shu yil 5 — 9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida Vyetnam parlamenti rahbarlari ishtirok etishga katta qiziqish bildirganida ham ko‘rish mumkin.

Uchrashuv yakunida tomonlar hamkorlikni rivojlantirish borasida konstruktiv muloqot va qo‘shma tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirdi.

**“Xalq so‘zi”.**

YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

# “IQMath — 2025”: olimpiada g‘olibiga “BYD” avtomobili!

*Fan olimpiadalari markazi hamda Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti hamkorligida sovrin jamg‘armasi 2 milliard so‘m bo‘lgan “IQMath — 2025” matematika olimpiadasiga start berildi.*




Mazkur bellashuv ikki bosqichda, ya’ni 1-bosqich: 1 — 10-aprel kunlari onlayn tarzda (60 daqiqada 30 ta test savoli beriladi va eng yaxshi 500 ishtirokchi finalga yo‘l oladi), 2-bosqich: 18 — 21-aprel kunlari Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti binosida (90 daqiqada 5 ta vazifa beriladi) bo‘lib o‘tadi. G‘oliblar yakuniy reyting natijalariga ko‘ra aniqlanadi.

10 va 11-sinf o‘quvchilari, akademik litsey hamda kollej bitiruvchilari, shuningdek, 20 yoshgacha bo‘lganlar ishtirok etadigan ushbu olimpiadaning 1-o‘rin sohibi “BYD e2” avtomobili, 2-o‘rin egasi “Apple iPad Pro M4” plansheti va 3-o‘rin egasi “Apple iPhone 16 Pro Max” smartfoni bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, eng yaxshi natija ko‘rsatgan jamoa mukofot tariqasida yozgi maktab doirasida Angliyaga sayohat qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Ikkinchi bosqichda qatnashgan barcha ishtirokchi universitet talabasi bo‘lganida 3 mln. so‘mlik “universitet stipendiyasi” sohibiga aylanadi.

# Orlat topilmalariga bag‘ishlangan monografiya

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutining san’at tarixi bo‘limi boshlig‘i, san’atshunoslik fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim Jangar Ilyosovning “So‘g‘diyonadagi ko‘chmanchilar. Orlat topilmalarining tarixiy va madaniy konteksti” (Kochevniki v Sogdiane. Istoriko-kulturnыy kontekst orlatskix naxodok) nomli monografiyasi “Yevroosiyo” nashriyoti tomonidan chop etildi.*




Monografiya I-II asrlarga oid Orlat kamar plastinkalari to‘plamining tarixiy va madaniy talqiniga bag‘ishlangan. Mazkur topilma 1981-yilda Samarqand viloyatida — qadimiy So‘g‘diyona hududida topilgan. Topilma suyak o‘ymakorligi tasvirlarining nodir detallari hamda badiiy ifodaliligi tufayli e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Orlat plastinkalari nashr etilgandan so‘ng Markaziy Osiyo arxeologiyasi va san’ati mutaxassislari o‘rtasida Yevroosiyoning ilk ko‘chmanchilari haqida qiziqish yanada ortdi.

Muallif mazkur monografiyada topilmalar qayerda va kim tomonidan, nima maqsadda yaratilgani, ularning etnik kelib chiqishi haqida qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etgan.

# “Vazir kubogi”: OTM rektorlari bellashuvi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida poytaxtimizda joylashgan oliy ta’lim muassasalari rektorlari o‘rtasida o‘tkazilgan minifutbol, stol tennisi va shaxmat bo‘yicha “Vazir kubogi” sport musobaqasining Qolib va sovrindorlari taqdirlandi.*



Tadbir davomida ishtirokchilarning yuqori darajadagi o‘zaro raqobati va jamoaviy qat’iyati alohida e’tirof etildi. Musobaqa g‘oliblariga “Vazir kubogi”, medallar hamda tashakkurnomalar topshirildi.

Mazkur tadbir kelgusida sport sohasidagi hamkorlik va qo‘shma loyihalarni yanada rivojlantirishga turtki bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida sportni ommalashtirishga xizmat qiladi.

**Rahim ShERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Senat qo‘mitasida

# OMBUDSMAN FAOLIYATI SARHISOBI

*Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi majlisida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning o‘tgan yildagi faoliyati to‘g‘risidagi ma’ruzasi muhokama qilindi.*

Ombudsman instituti 2024-yilda yangi konstitutsiyaviy qoidalar asosida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish, sohaga oid milliy qonunchilikni hamda milliy preventiv mexanizmni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda bir qator ishlarni bajargani qayd etildi.

Xususan, 2024-yilda Ombudsmanga kelib tushgan murojaatlar soni 2023-yildagiga (18 622 ta) nisbatan 4 800 taga yoki 25 foiz ortgan. Murojaatlarning yo‘nalishlari kesimiga ko‘ra ijtimoiy huquq yo‘nalishidagi murojaatlar jami murojaatlarning 31,8 foizini tashkil etib, 2023-yildagiga nisbatan 82 foizga oshgan.

Senatning 2024-yil 30-martdagi tegishli qarori bilan takroriy murojaatlarning oldini olish choralari ko‘rilishi natijasida bu borada ijobiy natijalarga erishildi. Takroriy murojaatlar soni 2024-yilda 3 077 tani tashkil qilib, oldingi yildagiga nisbatan 21 taga kamaygan.

Aholining inson huquq va erkinliklari sohasidagi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida “Ombudsman maktabi” loyihasi doirasida mamlakatimizning 86 ta tuman va shaharida targ‘ibot tadbirlari amalga oshirilgan.

Ommaviy axborot vositalarida Ombudsman faoliyatiga oid 4 mingdan ortiq chiqishlar tashkil etilgan. Shuningdek, Ombudsmanning har chorakdagi faoliyati natijalariga bag‘ishlangan 6 ta brifing o‘tkazilib, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida jonli efirga uzatilgan.

Shu bilan birga, e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ayrim kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi. Masalan, xotin-qizlar huquqlari cheklanishi, oilada ayolning tahqirlanishi, oiladagi tinchlik ta’minlanishi va zo‘ravonlikning oldi olinishi masalasida 294 ta murojaat kelib tushib, oldingi yildagiga nisbatan 121 foizga (133 ta) ko‘paygan.

Ombudsmanning mintaqaviy vakillariga Ombudsman kotibiyatidan hamda fuqarolardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri 3 857 ta murojaat kelib tushgan. Ular jami murojaatlarning atigi 16,4 foizini tashkil etgani Ombudsmanning mintaqaviy vakillari faoliyatiga aholining ishonchi yetarli darajada emasligi yoki hududlarda mintaqaviy vakillarning faoliyatini takomillashtirish zarurligidan dalolat berishi aytib o‘tildi.

Muhokamalar yakunida qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# TA’LIM JARAYONIDA HALOLLIK G‘OYALARINI SINGDIRISH – DAVR TALABI

*Har qanday jamiyatda ta’lim, ayniqsa, oliy ta’lim taraqqiyotning asosiy poydevori hisoblanadi. Agar ana shu tizimda shaffoflik bo‘lmasa, korrupsiya illatlariga barham berilmasa, mamlakatning kelajagi bo‘lmaydi. Shuning uchun yoshlarni ana shu illatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga o‘rgatish zarur.*

*Kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida ishtirok etib, yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berish bilan birga, ushbu yo‘nalishda kelgusidagi vazifalarni ham aniq belgilab berdi.*

## Munosabat

### Ochiqlik to‘laqonli ta’minlansa, illatlar kamayib boradi



Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiya bilan bog‘liq holatlar, asosan, o‘quv jarayonida sodir etilishi hech kimga sir emas, albatta. Ya’ni talaba o‘qishni bitirguniga qadar qariyb 60 taga yaqin predmetlarni o‘zlashtirishi hamda baholanishi lozim. Qoidaga ko‘ra, undan har bir fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirish talab qilinadi. Mana shu holatning o‘zi korrupsiya xavfi darajasi ortishiga sharoit yaratadi.

Shuning uchun, fikrimizcha, o‘zlashtirilgan bilimni baholash jarayonida talaba hamda professor-o‘qituvchi o‘rtasida vizual aloqani butunlay cheklash lozim. Aytmoqchimizki, talabaning fan bo‘yicha egallagan bilimlarini yakuniy baholash ushbu fandan ma’ruza o‘qigan yoki amaliy mashg‘ulotlarni olib borgan professor-o‘qituvchilarga bog‘liq bo‘lmasligi lozim.

Oliy ta’lim tizimi ishtirokchilari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiya kabi salbiy holatlar sababchisiga aylanishlarining oldini olish ustuvor ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalari uchun davlat xaridlarini amalga oshirish, bo‘sh ish o‘rinlariga fuqarolarni ishga qabul qilish, abituriyentlar uchun kirish imtihonlarida teng sharoitlar yaratish, o‘qitish va baholash jarayonlarida shaffoflik, ochiqlikni ta’minlash korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Dunyo mamlakatlari geosiyosatida yuzaga kelgan hozirgi murakkab sharoitda O‘zbekiston xalqining tinchligi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, investitsiyaviy loyihalar ijrosi orqali ishchi o‘rinlarni ko‘paytirish va yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, shuningdek, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish kun tartibidagi ustuvor vazifalardandir.

So‘nggi sakkiz yil ichida mamlakatimiz hayotida ro‘y bergan eng katta va jiddiy o‘zgarishlardan biri sifatida o‘rta umumiy, kasb-hunar va oliy ta’lim sohalarida sifatli ta’limni ta’minlash borasida amalga oshirilgan dadil islohotlarni tilga olish mumkin. Chunonchi, 2017-yil 15-sentyabrda qabul qilingan “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga ko‘ra akkreditatsiyadan o‘tkazilgan nodavlat ta’lim muassasalari bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat berish huquqi nazarda tutildi.

Bundan tashqari, uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratildi, avvalgi kreditlarning muddati uzaytirildi, ta’lim hamda unga tegishli xizmatlar bo‘yicha barcha soliq turi to‘lovlaridan 2021-yilgacha ozod etildi. Tanlangan fanlar chet tillarda chuqurlashtirib o‘qitilib, ta’lim sifatini oshirish maqsadida xorijlik o‘qituvchi hamda mutaxassislar keng jalb qilindi. Va ularga aviatransport, turarjoy, mehnatiga munosib haq to‘lash hamda soliqlardan ozod qilish kabi yengilliklar berildi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning qobiliyatli va iqtidorli farzandlarini tanlov asosida OTMdagi jami talabalar umumiy sonining 10 foizidan kam bo‘lmagan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish evaziga kelib tushgan daromadlar hisobidan bepul (grant asosida) o‘qitish belgilandi.

Ayni paytdagi asosiy vazifalardan biri — oliy ta’lim muassasalarida innovatsion o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat. Shuningdek, bilim beruvchi va bilim oluvchi shaxslar munosabatining shaffofligini ta’minlash, ta’limda korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi. Chunki korrupsiya jamiyat a’zolarini turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan, davlatchilik, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadigan, inson huquqlari buzilishiga olib keladigan ijtimoiy illat bo‘lib, barcha mamlakatlarda muayyan daraja va ko‘rinishda mavjud.

Ushbu illat huquqiy jihatdangina qoralanmasdan, boshqaruv, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa kasbiy sohalarda salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun unga qarshi kurashish barcha davlatlar hukumatlari va huquq-tartibot tizimlarining birlamchi vazifasi hisoblanadi. Bu illat, afsuski, yangi O‘zbekiston uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishga to‘g‘onoq bo‘lmoqda. Uni bartaraf etishning keskin choralari ko‘rilmasa, bu jamiyat tanazzuliga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, ta’lim tizimida ko‘zlangan maqsadlarga erishish borasidagi strategik vazifalarni hal qilish korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. 2022-yilda 96 ta davlat va oliy ta’lim muassasasida 162 ta shtat birligi asosida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat tizimini boshqarish bo‘limlari tashkil etildi. Bu tizimni yanada takomillashtirish, bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilish, manfaatlar to‘qnashuvini istisno etish, korrupsiyaviy jinoyatlar haqida xabar berish tartibi, davlat xaridlarini amalga oshirishning ochiq va shaffof mexanizmlarini o‘zida ifodalagan 18 ta ichki idoraviy hujjat xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqildi va faoliyatga tatbiq etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida talabalar va pedagog xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida “@Eduanticorruption” rasmiy telegram boti, “ishonch telefonlari” va “anticor@edu.uz” elektron pochta faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binolarida “Adolat qutilari” o‘rnatildi.

### Bilimlar elektron tizim orqali baholanadi

2023-yildan o‘z faoliyatini boshlagan Angren universitetida ham korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan sabab va shart-sharoitlarni o‘rganish hamda bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliygohimizda qabul qilingan 2024/2025 o‘quv yili strategiyasining ikkinchi yo‘nalishi universitetni korrupsiyadan xoli ta’lim muassasasiga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shu maqsadda professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bandlari keng o‘rganildi.

Universitetda korrupsiya xavf-xatarini aniqlash va uni o‘z vaqtida bartaraf qilishga qaratilgan ichki nazorat tizimi joriy etilgan. Aynan shu maqsadda fanlardan topshiriladigan barcha oraliq va yakuniy nazorat ishlari “MOODLE” platformasi orqali, ya’ni fan o‘qituvchilarining ishtirokisiz o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. Talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan mustaqil ta’limning ham ushbu platformada topshirilishi baholash jarayoniga o‘qituvchilar subyektiv ta’sirining oldini oladi. Bu esa talaba va o‘qituvchi o‘rtasida vizual aloqani qisqartirishga va egallangan bilimni xolisona tekshirish amaliyoti me’yorida ishlashiga olib keladi.

Bundan tashqari, universitetimiz fakultet, kafedra va bo‘limlari faoliyatida shaffoflikni to‘liq ta’minlash maqsadida ta’lim bilan bog‘liq barcha jarayon elektronlashtirilgan hamda ortiqcha rasmiy hujjatlardan voz kechilgan. Xususan, talabalar bilimi nazorati va baholash jarayoni, talabalar reytingini hisobga olish elektron tizim orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ham o‘z-o‘zidan professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasida vizual aloqani cheklashga xizmat qildi.

Angren universitetida talabalar hamda pedagog xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ham tizimli ishlar olib borilayotir. Chunki korrupsiyaning keng ildiz otishiga fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi pastligini sabab sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu, o‘z navbatida, jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘z huquqini bilgan odam esa qonunlarga amal qiladi. Ishonamizki, talaba-yoshlar ongiga singdirilayotgan korrupsiyasiz hayot ko‘nikmalari ularning kelajakdagi faoliyatlarida ham qo‘l keladi.

Zero, davlatimiz rahbari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishidagi nutqida ta’kidlaganidek, fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim maskanlarida ular ongiga halollik g‘oyalarini singdirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash g‘oyatda muhimdir.

**Mirabbos MAHMUDOV,**
**Angren universiteti rektori v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.**

**Shu yilning birinchi choragida O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining o‘sishi 6,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda.**

**8-mart — Xalqaro Xotin-qizlar kuni**

# “IGNANING ISHINI QILICH QILOLMAS”

## yoki matonat mo‘jizasi



*Matonat... Jasorat... Og‘irliklarni yengib o‘tish... Har qanday damda kuch topish... Bu so‘zlarni ko‘p eshitgansiz. Balandparvoz gapga ham o‘xshab ketadi. Eshitaversangiz, ba’zan yurakka ta’sir ham etmay qoladi. Biroq Dilorom opa Yo‘ldoshevaning hayot hikoyasi haqida bunday deb bo‘lmaydi. Qalbni ezadigan, ta’sirli, ayni paytda hayratingizni oshiradigan...*

*“Dunyo bo‘ylab ilhomlantiruvchi va nufuzli yuz nafar ayol!” Bu ro‘yxatga o‘sha hikoya qahramonining ham kiritilgani bejiz emas.*

*...Dilorom opa Surxondaryoning Oltinsoyidan. Denovning Surxon diyor mahallasiga kelin bo‘lib tushdi. Farzandlar ko‘rdi, turmush o‘rtog‘i — Dilmurod Pardayev. Baxtlari cheksizday, oila shodlik bag‘rida, ko‘ngillari tong bahrida bo‘lgan kunlarning birida... Nogahon... Hech kutilmaganda... Azaldan shunday, bir daqiqadan keyin kim nima bo‘ladi, oilaning boshida quyoshmi, zim-ziyo tunmi? Bitta narsa aniq, turmush-u tiriklik, dunyoning ravoni ravishi sinovdan iborat. Aslida, har soniya sinov-u imtihon.*

*Dilorom opa oilasini nima kutayotgan edi? Baxtlar, baxtsizliklar, kunduzdan keyin qorong‘u tun, saodat-u jasoratlar... Osmon top-toza edi, qora bulut yo‘q. Biroq momaqaldiroq gumburladi. Oilani ham, olamni ham titratdi. Zimiston qopladi. Hammasi to‘satdan ro‘y berdi.*

Dilorom opa ro‘zg‘or tashvishida charchagan. Qo‘li-qo‘liga tegmaydi. Oilam deb, bolalarim deb, yelib-yuguradi. Jonini ayamaydi. Dalaga yetib borganda kombayn kelayotgan ekan. To‘xtadi. Kombayndagi makkani o‘rib, sindirib, maydalab, komiga tortadigan “girdibod” aylana to‘xtagani yo‘q. Tishlari ajdaho tishiday. Misli charxi falak. Hamma narsani yutib yuboradiganday. Dilorom opaning oyog‘i ostida bir bog‘ makka yotibdi. Charxi falak uni ololmasa, kombayn balonlari shunday yam-yashil makkajo‘xorini bosib, yakson etib tuproqqa qorib yo‘q qiladi. Dilorom opa shu... bir bog‘ makkajo‘xorini olib kombayn parragiga tashladi-yu, ortga qayrildi. Soniyaning mingdan bir zarrasida ulgurmadi. Kiyimining uchi “ajdaho”ning tishiga qadaldi. “Ajdaho” yamlayapti. Bir bog‘ makka, unda etagining uchi tortilyapti, yutilyapti. Temirda shafqat yo‘q. Charxi falak ayamaydi. Dilorom opa bor kuchi bilan, jon-jahdi bilan “ajdaho” tishidan “joni”ni yulib, uzib olmoq uchun, hayotini saqlab qolish uchun tortdi. Yo‘q, kuchi yetmadi. Butun vujudi bilan “ajdaho”ning og‘ziga boryapti. Ajal go‘yo “ajdaho” tishlarida. g‘ayrishuuriy bir tarzda xalatni ustidan olib, egnidan tushirib, otishga urindi. Tez, juda tez. So‘nggi tugmaga ulgurolmadi. Xalati barobarida oyog‘i “ajdaho” tishida qoldi...

Hayotni kim tushunib yetgan? Hech kim. Kazo-kazo allomai faylasuflar ham hayot evrilishlari ro‘parasida sukutga cho‘mganlar. Taqdirmi, qismatmi... g‘oyibona oldindan yozilgan yoziqmi?! Bu savolga javob berishga kishi ojiz. Inson bir lahza oldin bog‘ning guli, bir lahza keyin qismatning quli. Keksalar “Bunday qaro balo qayerda kutib turgandi?” deya yuraklaridan o‘tkazadi. Ming bir balodan o‘tgan yoshi ulug‘lar ham shunday damda og‘ir o‘yda qoladi. Hayot kitobini o‘qiyverib, tushunaverib donishmand bo‘lganlar ham so‘z topolmaydi. “Ey, dunyo, seni, anglab bo‘ladimi, so‘ngsiz tilsimmisan, nimasan o‘zi?!” deb ko‘ngillarni azobning iztirobida tutadi.

Kuyunchak ko‘ngilni qarang, kuyunchak ko‘ngilni. Bir bog‘ makkajo‘xori xas-xazon bo‘lib, tuproqqa qorilib ketsa, nima bo‘lardi. Dunyo dunyo bo‘lmay qolarmidi?! Bir bog‘ xashak inson umridan azizmidi?! Ey, o‘zbekning jafokash ayoli, ko‘nglingning fidoyiligi cheksiz. Yoki qismatning yo‘rig‘i shaksiz...

Dilorom opa temir “ajdaho” og‘zida ekan, faryodidan nariroqdagi kombaynchi yugurgan. Opa hushdan ketadi. Kombaynchi yetib kelib “girdibod”ni to‘xtatadi. Lekin... Dilorom opa hushsizmi, jonsizmi... bir holda.

Shifoxonada tibbiy amaliyot qariyb besh soat davom etadi. Bir oyoq kombayn oldida qolib ketgan. Ikkinchi oyoqning ahvoli...

Tibbiy amaliyotchi hakim ertasiga bir imoga mahtal bo‘lib turgan bemorning turmush o‘rtog‘i va onasiga yuzlandi.

— Siz onasi... siz turmush o‘rtog‘isiz. Menga ham, sizga ham og‘ir. Ko‘rib turibsiz... Yashab qolishi...

Hakim jim qoldi. So‘zi bo‘g‘ziga tiqildi. Sukunat davom etardi...

— Ayting... ayting, — deyishdi baravar.

— Irodasi kuchli ayol ekan. U yashashi kerak. Lekin tirik qolishi sizlarga ham bog‘liq, — hakim yutinib oldi, — yashashi uchun ikkinchi oyoqni ham... Bo‘lmasa, gangrena kelib chiqadi... Nima deysizlar?!

Ikki kun ilgari shiddatlanib dalaga yugurgan Dilorom opa... endi ikki oyoqsiz... ko‘zlari jovdirardi.

Insonni yuragi inson qilib turadi. Yuragi uryapti-ku... “Gurs-gurs!” Hayot... hayot... Kim qanday o‘ylaydi?! Og‘ir. Cheksiz og‘ir. Qismatdan kim qochib qutuladi?! Bormi dunyoda taqdirni tan olmagan jon?! O‘ylarning azoblanishi. Yurakning ezilishi. Botiniy yig‘ilar. O‘kinch-u tushkunliklar. O‘ylaysiz, qayg‘u qorong‘uligidan chiqa olganlar bormi? Tubsiz “zindon”lardan nurga yetsa bo‘lar... Biroq bu fojiadan yorug‘likka erishish... oson emas. Hayot fojialari ming turli... Taqdir girdoblarida necha-necha jonlar nochor-u ilojsiz. O‘zini yo‘qotganlar. Tushkunlikda mag‘lublar. Keraksiz vujudga aylanganlar. Barchasidan umid uzganlar...

> *Qishloqdoshlari hayratlandi:*
> *— O`sha Dilorommi shu?! 1-guruh nogironi Yo`ldosheva-a-a?! E-e, shunday qilsa bo`lar ekan-da. Butun Surxon diyoriga kiyim tikyapti. Qoyil-ey. Hammaning tilida Dilorom tikuvchi. Obro`sining oshganini ko`ring! Bir xil soppa-sog` odamlar “ish yo`q” deb, tashkilotma-tashkilot yuribdi. Yarimjon holida yarim dunyoni hayron qoldiryapti, otasiga rahmat!*

Lekin Dilorom opa qo‘rqmadi. Umidini o‘ldirmadi. Yo‘l qidirdi. “Topmasdan qo‘ymayman, — dedi o‘ziga-o‘zi — hech kimga yuk bo‘lmayman. Elning yukini ko‘taraman. Yuragim kuchli. Ko‘zlarim charaqlayapti, qo‘llarim nozig-u zabardast, aqlim, fikrim zo‘r. Nima qilsam ekan?”. U talpinishdan, fikrlashdan, yo‘l izlashdan to‘xtamasdi. Unga xushxabar keldi. Nukusdan. Paraolimpiadachilardan: “Siz voleybol musobaqasida qatnashasiz. Siz bilan biz g‘olib bo‘lamiz”. U qaror qildi: “Boraman!” Elning ulug‘ momosi buni eshitib, kelib, Dilorom opaga so‘z aytdi:

— Diloromjon, yana bir o‘ylab ko‘r. O‘yin-o‘yin... qaltis... Sen xalqimizga keraksan. Oilang, bolalaring bor. Yuragimda bir so‘z olib keldim senga. Aytganimni qilsang, peshonang yaraqlaydi. Oyog‘i borlar yetolmagan ulug‘likka yetasan.

— Ayting, Poshsha xola, ayting.

— Diloromjon, “Ignaning ishini qilich qilolmas”. Buni Termiziy bobo aytgan. Sen tikuvchilik qilgin, tikuvchilik!

Tikuvchilik! Dilorom opaning yuragida nogahon tong otdi. Dunyosi yorishdi. Qalbi hayajonga to‘ldi. El hamisha donishmand. Bilib aytadi. Tushunib so‘zlaydi. U avvaldan tikuvchilikka jonini berardi. O‘zbek ayoli tikuvchi, avval-avvaldan kashtado‘z. Dunyoni butlamoq qonida bor. Momolarimiz ignaning ko‘zidan quyoshni o‘tkazgan. Yetti ming rangni ignaning uchida tutishgan, oppoq palaklarga naqshi nigor etishgan. Qanday qilib qoyil qolmaysiz. Samandar Termiziyning “Ignaning ishini qilich qilolmas”, degan fikratini dillarida asrab, tillarida saqlaganlar.

Ko‘ngil bilan qarasangiz, vaqtning o‘zi buyuk tikuvchi. Olam libosi ham vaqt tolasi-yu rishtalaridan. U charxning falagidan hayot palaklarini yaratadi. Nurni nurga, ipni ipga ulaydi. Tikaveradi, to‘qiyveradi, yarataveradi. Vujudlarni kiyintiradi, suyuntiradi, go‘zallikka burkaydi... Vaqt hatto kafan bichadi... Qilich bilan ko‘ylak tikib bo‘ladimi? Dunyodagi barcha ko‘ylaklar-u liboslarni tikuvchilar tikkan.

Dilorom opa hayotga qayta kelganday ich-ichidan yayradi. “Eng zo‘ri tikuvchilik. Qo‘limdan keladi. Shunday to‘nlar tikayinki, kuyov yigitlar kiyib g‘ururlansin. Ko‘zlarni yashnatadigan ko‘ylaklar tikamanki, qizlar kiyganda hayot yanayam chiroyli bo‘lsin. Yigitlarning ko‘zi olovlansin...” U ertasi tongda boshqa Dilorom opa bo‘lib uyg‘ondi. Yuzlari lovillardi. Orzusi cho‘g‘lanardi.

Qalbidagi niyat yo‘lga boshladi.

Yangi O‘zbekistonning nurlarini his etdi.

Adliyadan kelishdi. Ijtimoiy yordamdagilar madad berishdi. Hokimlig-u Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda mahalla qo‘lladi. Mahalla raisi Elbek Xalilov — odamlarning joni. Elning suyanchi, tayanchi. Turmush o‘rtog‘i Dilmurod Pardayev: “Sen qo‘ymaysan, Dilorom. Hali mashhur tikuvchi bo‘lib ketasan”, deb orzulantirdi. Farzandlari ko‘ngliga qanot bo‘ldi.

Qishloqdoshlari hayratlandi:

— O‘sha Dilorommi shu?! 1-guruh nogironi Yo‘ldosheva-a-a?! E-e, shunday qilsa bo‘lar ekan-da. Butun Surxon diyoriga kiyim tikyapti. Qoyil-ey. Hammaning tilida Dilorom tikuvchi. Obro‘sining oshganini ko‘ring! Bir xil soppa-sog‘ odamlar “ish yo‘q” deb, tashkilotma-tashkilot yuribdi. Yarimjon holida yarim dunyoni hayron qoldiryapti, otasiga rahmat!

Dilorom opaning ko‘ngli o‘sdi. Ikkilangan edi-da. Tiksam, sotiladimikin, tikkanimga elning ko‘ngli to‘larmikin, deya. Ana mo‘jiza-yu mana mo‘jiza. O‘zining mahallasi-ku, tikish ishlari uchun shaharga bormay qo‘ydi. Shaharda ham Dilorom opaday tikuvchi yo‘q. Qo‘shni mahallalardan ham odamlar kelaveradi. Tikib ulgurolmaydi.

Tinib-tinchimagan Dilorom opa ko‘ngliga tugdi: “shogirdlar yetishtiraman!” Qizlar ish izlab yurmaydi. Mahalladoshlariga dilini ochdi. Shu tariqa 4 ta tikuv mashinasida 15 nafar qiz-u ayolga hunar o‘rgatishga kirishdi. Zero, “Hunarni asrabon netkumdur oxir, Olib tufroqqamu ketkumdur oxir”, degandi Navoiy hazratlari. Qizlar 2 oyda bitirib, sertifikat olyapti. Har biri mohir tikuvchi. O‘rganganlar 50 nafardan oshdi. Ular Dilorom opaning qo‘lida ishlaydi.

Халқ сўзи
Народное слово
TANLOVIGA

Xursandchiliklari olamga sig‘maydi. Ustoz o‘z shogirdlari bag‘rida.

Baxt tog‘dan oshib kelmaydi. Baxt insonning o‘zida, qalbida, intilishida, tadbirkorligida. Bog‘imanda bo‘lib, birovning qo‘liga, birovning yo‘liga qarab o‘tirish — dahshat. Dilorom opa boqimandalikni yoqtirmaydi. Mehnat-u zahmatning yo‘li barakali. Birovning puli — minnatli. Ishlayman deganga ish ko‘p — nasiba mo‘l. Dangasa bahona topadi. Landavurga hech qayerda ish yo‘q...

Dilorom opa bilan suhbatlashyapmiz-u o‘ylarga chulg‘anamiz. Bu insonning 1-guruh nogironi bo‘lgani holda, butun hayotini mehnatga baxshida etishi, ishlamay turolmasligi, zahmatdan farog‘at topishi o‘zi emas. Rizqni halol va adolatli topishi, boqimandalikdan uzoqlashgani, oilaga mehnati bilan madad berishi har qanday kishining havasini keltiradi. Kolyaska-aravada tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ygani, eldoshlarini ish bilan ta’minlagani esa tengsiz hayrat va yuksak hurmatga munosib! Uning dunyodagi 100 nafar matonatli ayol safida e’tirof etilgani ham shundan. Dunyoning-a?! Mohiyat qayerda? Bu mo‘jiza qayerdan kuch olyapti. Avvalo, o‘zni anglaganlikda. “Ne istarsan, ul o‘zingda jam erur” (Rumiy). Yana oilada. Hamma gap oilaning o‘zbekona ulug‘ligida.

Dilorom opa bir kuni... turmush o‘rtog‘iga fikrini aytdi:

— O‘zimdan ko‘ra sizni ko‘p o‘ylayapman. Peshonamda bor ekan... Nima qilay, men tushunaman... Siz... bir yaxshi ayolga uylaning... — Dilorom opa jim qoldi. O‘zini qattiq ushladi, — mayli... men ham uyning bir chetida yashab turaman.

Jufti haloli Dilmurod Pardayev... Traktorchi, insoniyligi ibrat olishga arzigulik:

— Dilorom... men bunday qilolmayman, — dedi u. — Nomardlik bo‘ladi. Bolalarni o‘qitamiz... qo‘sha qariymiz.

Dilorom opa yuragidagi cheksiz mehr bilan eriga qaradi. Shunday lahzalarda atoqli shoirning (Abdulla Oripov) “Hali mard yigitlar yashab yuribdi” misralari dilingizdan o‘tadi. Mard insonlar borki, hayot abadiy. Dunyo mustahkam. Quyosh aylanaveradi. Tonglar otaveradi...

Yarim joni bilan butun-butun orzulari bor Dilorom opaning. Katta o‘g‘li Jaloliddin Rahmonaliyev chorvaga qiziqadi. O‘zi tikuvchilikni keng yo‘lga qo‘ymoqchi. O‘g‘li chorva fermerligiga intiladi. Yurtining yukini ko‘taradigan fermer. Baraka va saxovatda — el obodligi. Pok niyatlarning zilol buloqday qaynayotgani...

Dilorom opaning jism-u jonida, ruhi ravonida, aql-u zakovatida, fitrat-u fikratida jonkuyarlik, elparvarlik, ulug‘lik va matonat! Bu fazilatlar har qanday insonga e’zoz va ehtirom, kuch-qudrat, baxt-u saodat tuhfa etishi, shubhasiz.

**Mengnor OLLOMURODOV,**
**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.**

*Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning ta’lim olishi, ishlashi, xotirjam va baxtli yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, o‘z sohasida yuqori natijalarga erishayotgan ayol-qizlarni davomiy ravishda rag‘batlantirib borish ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ezgu ish ularga yanada kuch-Qayrat, ilhom bag‘ishlamoqda. Xususan, har yili o‘z sohasida faol, iqtidorli, yuksak salohiyatga ega xotin-qizlarni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash an’anaga aylangan.*

*Muxbirimiz kuni kecha Prezidentimiz qaroriga muvofiq mukofotlanganlarning ayrimlaridan fikr-mulohaza va dil izhorlarini yozib oldi.*

# “BAXTIM SHUL — O‘ZBEKNING ZULFIYASIMAN”



**Zanjiloy ABDUSALOMOVA,**
**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi:**

— Xat tashuvchi amakining uzoqdan ko‘ringan velosipedi hamisha meni quvontirardi. Bolaligimda bobojonimga pochtachi nafaqa bilan birga gazeta va jurnallar ham olib kelardi. O‘sha damlarda hali harf tanib ulgurmay o‘qishni biladigandek sahifalarni varaqlab o‘tirar, ba’zan suratlarga boqib, o‘zimcha pichirlab nimalardir to‘qirdim. Savodim chiqqach, kichik-kichik hikoya va she’rlar mashq qila boshladim. Ijodiy ishlarimni bobom ikkimiz pochta orqali tahririyatlarga jo‘natardik. Ilk bor gazetada maqolam chop etilganini ko‘rib, ismimni qayta-qayta o‘qib zavqlanganim hamon yodimda.

Talaba bo‘lganim maqsadlarimga erishish, qaynoq ijodni davom ettirish uchun qo‘yilgan muhim qadam edi. Shu asnoda Aleksandr Faynberg nomidagi maxsus stipendiya sovrindori, “Zomin seminari — 2024” ishtirokchisi bo‘ldim. Yuzdan ortiq maqolalarim respublika nashrlarida chop etildi. Erishgan yutuqlarim meni yanada harakat qilishga undaydi, albatta. Ayniqsa, ortimda ota-onam, yaqinlarim va ustozlarim ishonch bildirib, qo‘llab-quvvatlayotganini his etsam, kuchimga yanada kuch qo‘shiladi.

Yurtboshimiz imzolagan qarorda ism-sharifimni o‘qir ekanman, ko‘zlarimda yosh qalqdi, kechagina qishlog‘idagi so‘rida ko‘kni bezagan yulduzlarni qayta-qayta sanab, yon-veridagi tabiatning mo‘jizasiga hayrat ko‘zi ila boqib, ushbu manzaralarni goh she’r, goh maqola o‘laroq qog‘ozga tushirgan murg‘ak qizaloq ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ldi. Ha, u bugun o‘z maqsadiga erishdi. Davlatimiz rahbari bildirgan ushbu ishonch menga ulkan mas’uliyat yuklaydi, kuch va Qayrat bag‘ishlaydi. Bundan keyin ham yanada qaynoq ijod qilib, olg‘a intilib, bu ishonchga munosibligimni ko‘rsatish harakatida bo‘laman. Axir, men yangi O‘zbekistonning baxtli qizlaridanman!



**Naima ANVAROVA,**
**Chinoz tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi:**

— Orzu hamisha kishini yangi marralar va yaxshi hayot sari ruhlantirib turadi. Hassos shoira va atoqli jamoat arbobi Zulfiya nomi bilan ataluvchi mukofotga loyiq ko‘rilish, barcha o‘zbekistonlik qizlar qatori, mening ham orzuim bo‘lib kelgan. Prezidentimiz qarorini o‘qib, bir orzuim ro‘yobga chiqqandan behad quvondim. Endi ustoz ijodkor kabi “Baxtim shul — o‘zbekning Zulfiyasiman”, deya baralla ayta olaman.

Bir pedagog sifatida keyingi yillarda ta’limga, ayniqsa, xotin-qizlar tahsiliga katta e’tibor qaratilayotganini mamnuniyat bilan ta’kidlashim lozim. O‘qituvchilarning huquq va manfaatlari mamlakatning Asosiy Qonuni — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qat’iy belgilangani ham men kabi barcha soha xodimlarini ruhlantiradi, yangi marralar sari sobit bo‘lishda kuch beradi. Buning uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildirsam, o‘ylaymanki, yurtimizdagi barcha o‘qituvchi va murabbiylarning dilidagi so‘zni aytgan bo‘laman.

Zotan, muallimlik — sharafli va mashaqqatli kasb. Odam bolasi hayotda qoqilmasligi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun bir ustozning etagini tutishi darkor. Shu ma’noda, meni hamisha qo‘llab-quvvatlab, olg‘a da’vat etib kelgan ustozim Ravshan Omonovga rahmat aytib, kelgusida bu e’tirofni oqlab, uning kabi ta’limning fidoyisi bo‘lishga harakat qilaman.



**Layloxon SAYNAZAROVA,**
**Quvasoy shahar madaniyat bo‘limi to‘garak rahbari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi:**

— Bolalikdan mumtoz san’atimizga qiziqib, Quvasoy shahrida tashkil etilgan musiqa to‘garaklarida ilk qadamlarni tashlagan edim. Ustozlar ko‘magida asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan katta ashula, maqom qo‘shiqlarini o‘rganish asnosida bu boradagi qiziqishlarim yanada yuksaldi. Shu tariqa mumtoz san’atimizni dunyo miqyosida yanada keng targ‘ib etish asosiy maqsadimga aylandi.

O‘tgan yillar davomida jahon mumtoz san’ati namunalarini ijro qilish orqali xalqaro miqyosda o‘tkazib kelinayotgan tanlovlarda qatnashib, faxrli o‘rinlarni egalladim. O‘z navbatida, mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanib, an’anaviy xonandalik yo‘nalishida ko‘rik-tanlov va festivallarda ko‘p bor g‘olib bo‘lish baxti ham nasib etdi.

2022-yili “Nihol” mukofoti sovrindori, 2023-yilda esa “O‘n ikki maqomning ilmiy tarixi va islom dini bilan bog‘liqlik jihatlari” mavzuidagi ilmiy maqolalarim uchun xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritdim. Bu ilmiy sohadagi izlanishlarimni davom ettirish uchun ham rag‘bat bo‘ldi.

2024-yili Qoraqalpog‘istonning Bo‘zatov tumanida o‘tkazilgan “Yoshlar ovozi” respublika ko‘rik-tanlovi g‘olibi hamda xalqaro san’at yo‘nalishi bo‘yicha “AL LIBITUM” ko‘rik-tanlovi Gran-pri sohibi bo‘ldim.

Shubhasiz, yutuqlarim orasida eng qadrlisi — Prezidentimiz qarori bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga loyiq topilganimdir. Endi ko‘ksimni ushbu mukofot bezab turishini o‘ylasam, vujudim titrab ketadi, hayajonlanaman, ichimda bir ilhombaxsh kuch paydo bo‘ladi. O‘ylaymanki, biz hali yo‘lning boshidamiz, oldinda bizni yanada katta zafarlar kutmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Ayolga baxt bering, saodat bering” deb nomlangan mushoira kechasi bo‘lib o‘tdi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 00.20 Topshirildi — 00.45 1 2 3 4 5 6